

“Tasdiqlayman”  
maktab M.M.I.B.D.O’  
A.Berdiqulov

**Do’slik tumani xalq ta’limi muassasalari faoliyatini  
metodik ta’minlash va tashkil etish bo’limiga  
qarashli 10-umumiy o’rta ta’lim maktabida  
o’tkazilgan “Bir farzandga uch kitob” aksiyasi**

# *TADBIRI TARTIBI*



***Bilimdonlar so'zi bordir bu bobda,  
"Bilimdonlar go'rdam-yu ilmu kitobda.  
Agar yolg'iz ersang hamdam kitobdur,  
Bilim subhidagi nur ham kitobdur.***

Assalomu alaykum! Hurmatli ota-onalar, mehribon ustozlar hamda kitobsevar o'quvchilar. Mana bugun barchamizni xat-savodga o'rgatuvchi, tilimiz ravon bo'lishi uchun kata ahamiyatga ega bo'lgan bu shubhasiz kitobdir. Shuning munosabati bilan bugun maktabimizda "Bir farzandga uch kitob" aksiyasi tadbirimizga xush kelibsiz.

Bugungi "Bir farzandga uch kitob" aksiyasi tadbirini ochib berish uchun so'z navbatini maktabimiz O'.I.B.D.O' Quدراتova M ga beramiz.

***Kishilar savdosi boshimdan uzoq,  
Erta kech bo'lmisham kitobga o'rtoq.  
U goh qo'ynidadir, gohi bag'rida,  
Kitob egasining mahbubi misol.***

Hozirgi navbatni 1-sinf o'quvchilariga beramiz. Ular ishtirokida kitob haqida ajoyib she'rlardan tinglaymiz, marhamat!

***Kitob bilimning boshi,  
Aqlu idrok quyoshi.  
Kitobda nurli iqbol,  
O'qib topaman kamol.***

Endigi navbatni 2-sinf o'quvchilariga beramiz.

***Tanishaylik men kitob,  
Asl bilimlarga kon.  
Boylik beray behisob,  
Bo'lsang agar qadr don.***

Hozirgi navbatni 9-"A" sinf qizlari ijrosidagi raqsga beramiz.

***Lekin yirtib burdalab,  
Kamaytirma varag'im.  
Sendan yana bir talab,  
Iflos qilma hech yog'im.***

Endigi navbatni 7-"B" sinf o'quvchisi M.Narziqulovaga beramiz.

***Kitobim qo'limda,  
Qaranglar qaranglaram so'zlari.  
O'qisam so'zlari,  
Tilimda jaranglar.***

Hozirgi navbatni 8-“A” sinfo’quvchi qizlariga beramiz.Ular ijrosida chiroyli raqs tomosha qilamiz, marhamat!

**Ilm yo’li murakkab ammo,  
Iste’dodda bular benazir.  
Ko’rib ko’zlar quvonar cheksiz,  
Bayramingiz sizga muntazir.**

Hozirgi navbatni maktabimiz M.M.I.B.D.O’ Berdiqulov A ga beramiz, marhamat!...

Shuning bilan “Bir farzandga uch kitob” aksiyasi tadbirimiz o’z nihoyasiga yetdi.

Barcha ota-onalarga o’z minnatdorchiligimizni bildiramiz!  
E’tiboringiz uchun rahmat!

**Do'slik tumani X.T.M.F.M.T va T.E.B ga qarashli 10- umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan "Kitobim-oftobim" shiori ostida "Kitob bilim bulog'i" nomli tadbiri to'g'risida**

## **M A ' L U M O T**

6.03.2015-yil

"Navro'z" Sh.F.Y.

2015-yil 6-mart kuni 1-2-sinf o'quvchilari ishtirokida "Kitob bilim bulog'i" nomli tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirda 1-2-sinf rahbarlari hamda 4-"B" sinf rahbari Saparova S. lar ishtirok etishdi.

"Kitob-bilim bulog'i" nomli tadbirda o'quvchilar o'zlari yod olishgan "Kitob" haqida she'r, maqol hamda qo'shiqlarni chiroyli qilib ijro qilib berishdi.

2-"A" sinf o'quvchisi Oltinbekova N rivoyat aytib quyidagi hissani kelib chiqardi:

***Kitob – bilim bulog'i***

***O'quvchining o'rtog'i***

Shundan so'ng har bir sinfdan o'quvchilar chiqib, dono bobolarimizning kitob haqidagi fikrlaridan aytishdi.

2-"B" sinf o'quvchilari esa qiziq ma'lumotlarga asoslangan "Kitob" haqidagi "Bilasizmi?" nomli chiqish qilishdi. Unda o'quvchilar kitoblar haqida qiziqarli ma'lumotlardan aytishdi.

Tadbir so'ngida Saparova S so'zga chiqib o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tdi.

**Kutubxonachi: \_\_\_\_\_**

**J. Aliboyeva**

“Tasdiqlayman”  
maktab M.M.I.B.D.O’  
\_\_\_\_\_A.Berdiqulov  
6.03.2015 yil

**Do’stlik tumani X.T.M.F.M va T.E.B ga  
qarashli 10- umumiy o’rta ta’lim maktabida  
o’tkazilgan “Kitobim-oftobim” shiori ostida  
“Kitob-bilim bulog’i” tadbiri bo’yicha tuzilgan  
tadbirlar tartibi**

# *TADBIRI TARTIBI*



Boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, qadrli o'quvchilar bugun o'tkazilayotgan "Kitobim-oftobim" shiori ostida "Kitob-bilim bulog'i" nomli bayram tadbiriga xush kelibsiz!

Bugungi tadbirni ochib berish uchun so'z navbatini M.M.I.B.D.O' Berdiqulov A ga beramiz marhamat!...

Navbatni 1-"A" sinf o'quvchilariga beramiz.

### **1-o'quvchi:**

*Yosh o'ynoqi ko'zlarim,  
Shuur olar kitobdan.  
Tashkil topib so'zlarim,  
Baxtim kular kitobdan.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob, meningdo'stimsan.*

### **2-o'quvchi:**

*Har sahifang men uchun,  
Bir hikoyat so'zlaydi.  
O'qib, olim bo'lgin"-deb,  
Yaxshi niyat ko'zlaydi.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob mening do'stimsan.*

### **3-o'quvchi**

*Kitob bilimning boshi ,  
Aql-u idrok quyoshi.  
Kitobdan nurliqbol,  
O'qib topaman kamol.*

Qadimdan ota-bobolarimiz kitobni qo'llariga olganda, avval o'pib,ko'zlariga surtganlar. Keyin ochib, o'qiganlar. Bu ularning "Bizga bilim berding, seni ko'z qorachig'idek asraymiz" degan e'tirofi bo'lgan. Ajdodlarimiz kitobni muqaddas boylik deb bilganlar.

Hissa:

### **Kitob-bilim bulog'i**

### **O'quvchining o'rtog'i**

Navbatni 1-"b" sinf o'quvchilariga beramiz  
Marhamat!...

### **1-o'quvchi**

Tanishaylik, men-kitob  
Asl bilimlarga kon  
Boyluk beray behisob  
Bo'lsang agar qadrdon  
Lekin yirtib, burdalab  
Kamaytirma varag'im  
Sendan yana bir talab  
Iflos qilma hech yog'im

### **2-o'quvchi**

Kitobda bilim lim-lim  
O'qi qunt bilan do'stim  
Topmoq istasang kamol  
Oltin olma, duo ol

### **3-o'quvchi**

Tinmay o'qisang agar  
Ko'p narsani o'rgatar  
Bilsang yo'lingda oftob  
Bilim koni bu – kitob

Shundan so'ng 2-“B” sinf o'quvchisi Xo'jamqulova O' rivoyat aytadi.

Shundan so'ng 2-“A” sinf o'quvchilari ijrosida “Kitobim qo'limda” qo'shig'l ijro etiladi.

### **O'quvchilar she'r aytadilar:**

Men kitobni ochaman  
Kitob aqlimni ochar  
Men kitobim ochaman  
G'aflat tun kabi qochar  
Men kitobni ochaman  
Kitob ochar dunyoni  
Men kitobni ochaman  
Kitob ochar ziyoni  
Kitob qalbdan mudragan  
Tuyg'ularni qo'zg'atar  
Tong chog'l u onamday  
Orzularni uyg'otar

**Boshlovchi:** Hozir o'quvchilarimiz sizlarga o'zida durdona fikrlar mujassamlashgan hikmatlardan na'munalar aytishadi.

**1-o'quvchi**

Bilimdan ortiq boylik yo'q

**2-o'quvchi**

Kitob bilim manbai

**3-o'quvchi**

Bilgan o'qir, bilmagan to'qir

**4-o'quvchi**

Avval o'rgan, keyin o'rgat

**5-o'quvchi**

Aqlning qayrog'i – bilim

**6-o'quvchi**

Ilm olsang dunyoda aqling bo'lar ziyoda

**7-o'quvchi**

Bilim – baxt keltirar

**8-o'quvchi**

Kitob aql chirog'i

**9-o'quvchi**

Kitobdan yaxshi do'st yo'q

**10-o'quvchi**

Kitob – xazina

Bilim – boylik

Boshlovchi: Hozirgi navbatti 2-“B” sinf o'quvchilariga beramiz marhamat . . .

**1-o'quvchi**

Ey o'zg'on nashdan, yaralgan o'zbek

Shavkati olamga taralgan o'zbek

Asli nasli toza buyuk millatsan

Uluslar ichida qutbi izzatsan

**2-o'quvchi**

Orzularim bir jahon

Poydevor unga kitob

Hayotim yo'llarini

Yoritar nurli oftob



### **3-o'quvchi**

Kitob ochdi menga dunyo eshigin

O'rgatdi u menga neligin ijod

Tarixni o'qidim, ko'rdim kelajak

"Alifbeni" o'qib chiqardim savod

Shundan so'ng dono bobolarimizning kitob haqidagi fikrlarini tinglaymiz...

#### **Boshlovchi:**

Kitobim qo'limda

Qaranglar-qaranglar

O'qisam so'zlari

Tilimda jaranglar

Shundan so'ng qiziqarli ma'lumotlarga asoslangan 'Bilasizmi?' sahifasiga beramiz.

**Boshlovchi:** Mana hurmatli ustozlar , mehribon mehmonlar, qadri bolajonlar ilm sari yetaklovchi kitob haqidagi tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. Bugun siz bilim manbai bo'limish kitob haqida juda ko'p ma'lumotlarni bilib oldingiz.

Kitobni seving, butun umr u bilan do'st bo'lib qoling. U insonni soadat sari eltuvchi mayoqdir.

**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-8-9-sinf  
o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "G'azalxonlik"  
bellashuvi to'g'risida**

# *MA'LUMOT*



**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "G'azalxonlik" bellashuvi to'g'risida**

**MA'LUMOT**

12.02.2015 yil

"Navro'z" ShFY

Maktabimizning 7-8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida 12-fevral kuni "G'azalxonlik" kechasi o'tkazildi. "G'azalxonlik" bellashuviga har bir sinfdan 8 tadan ishtirokchi qatnashdi.

Ushbu bellashuvga 5-"A" sinf rahbari Z.Qobilova hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi O.Mustafoyevalar hakamlik qilishdi.

Bellashuvni maktab kutubxonachisi J.Aliboyeva olib bordi.

Bellashuvni 9-"A" sinf boshlab berdi. Musobaqa qizg'in ravshda davom etdi. Ushbu bellashuvni birinchi 8-"B", 7-"A", 9-"B", 8-"A" sinflar birin ketin tark etishdi. 9-"A" va 7-"B" sinflar bellashuvni davom ettirib 9-"A" sinf g'oliblikni qo'lga kiritishdi..

Bellashuv so'ngida O.Mustafoyeva so'zga chiqib, g'azal aytish qoidalari haqida gapirib o'tdi. So'ngra g'olib guruh aniqlanib e'lon qilindi.

Ushbu "G'azalxonlik" kechasi o'quvchilarda kata taassurotlar qoldirdi.

**Kutubxonachi:**

**J.Aliboyeva**

“Tasdiqlayman”  
maktab MMIBDO’  
\_\_\_\_\_ A.Berdiyulov  
12.02.2015 yil

**Do’stlik tumani xalq ta’limi muassasalari faoliyatini  
metodik ta’minlash va tashkil etish bo’limiga  
qarashli 10-umumiy o’rta ta’lim maktabida  
o’tkazilgan “G’azalxonlik” bellashuvi**

# *TARTIBOTI*



***Charxning men ko'rmagan jabru-jafosi qoldimu  
Hasta ko'nglim chekmagan dardu balosi qoldimu  
Meni xor etdiyu qildi muddoiga parvarish  
Daxri dun parvarning o'zga muddosi qoldimu***

Assalomu alaykum hurmatli, mehridaryo ustozlar hamda bilimdon o'quvchilar mana bugun Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 532-yilligini nishonlash maqsadida yig'ilib turibmiz.

Mana bugun maktabimizning 7-8-9-sinf o'quvcghilari o'rtasida "G'azalxonlik" bellashuvida yig'ilganmiz.

Ushbu bellashuvga har bir sinfdan 8 tadan o'quvchi ishtirok etadi.

"G'azalxonlik" kechasiga ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi B.Aliboyeva, O.Mustafojeva hamda O'IBDO' M.Qudratovalar hakamlik qilishdi.

"G'azalxonlik" bellashuvi qoidasi quyidagicha bellashuv o'zbek mumtoz adabiyoti namayondalarining g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, qit'alaridan aytishadi. Agar qaysi guruh tugagan harfga g'azalni davom ettira olmasa o'sha guruh bellashuvni tark etadi.

Bellashuvni 9-"A" sinf o'quvchilari boshlab beradi. Olgan sinflar shu tariqa davom ettiradi.

Bellashuv qizg'in ravishda davom etdi.

Shundan so'ng bellashuvni birinchi bo'lib, 8-"B" sinf o'quvchilari, so'ngra 7-"A" sinf, 9-"B" sinf hamda 8-"A" sinf o'quvchilari tark etishdi. Shundan keyin 9-"A" va 7-"B" sinflar bellashuvni davom ettirib, g'azalxonlikni qizitib yuborishdi.

Bellashuv davomida aniq bo'ldiki 9-"A" sinf o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritib, 7-"B" sinf o'quvchilari ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Bellashuv so'nggida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi B.Aliboyeva so'zga chiqib, o'quvchilarning kiyinish madaniyati hamda talaffuz qoidalariga kata e'tibor berish kerakligini aytib o'tdi.

Ushbu "G'azalxonlik" bellashuvi o'quvchilarda kata taassurotlar qoldirdi.

"G'azalxonlik" bellashuvini maktab kutubxonachisi J.Aliboyeva olib bordi.

**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-4-sinf  
o'quvchilari o'rtasida "Kitob-mening  
do'stimsan" mavzusida o'tkazilgan davra  
suhbati to'g'risida**

# *MA'LUMOT*



**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining 3-4-sinf o'quvchilari o'rtasida "Kitob-mening  
do'stimsan" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini to'g'risida**

**MA'LUMOT**

11.03.2015 yil

"Navro'z" ShFY

2015-yil 11-mart kuni maktabning 3-4-sinf o'quvchilari, sinf rahbarlari, "Kamolot"BT yetakchilari ishtirokida "Kitob – mening do'stimsan" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Ushbu davra suhbatida o'quvchilar tomonidan kitob haqida she'rlar , maqollar, hikmatli so'zlar hamda qo'shiq kuylab berishdi.

Shuningdek 4-sinf o'quvchisi Narzullayeva Dilnura kitob haqida rivoyat aytib quyidagi hissani chiqarib berdi.

Kitob bilim bulog'i

O'quvchining o'rtog'i

Davra suhbatini so'nggida I.Jo'raqulova so'zga chiqib, kitobning afzalliklari hamda un iota-bobolarimiz qanday asrab-avaylaganliklarini gapirib o'tdi.

O'quvchilar ushbu davra suhbatidan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni bilib olishdi.

**Kutubxonachi:**

**J.Aliboyeva**

**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga  
qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining 5-6-sinf o'quvchilari o'rtasida  
"Adabiyot kunlari"ga bag'ishlab o'tkazilgan  
bahru-bayt to'g'risida**

# *MA'LUMOT*





**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-6-sinf o'quvchilari o'rtasida "Adabiyot kunlari"ga bag'ishlab o'tkazilgan bahru-bayt to'g'risida**

**MA'LUMOT**

9.02.2015 yil

"Navro'z" ShFY

2015-yilning 9-fevral kuni 5-6-sinf o'quvchilari o'rtasida bahri-bayt bellashuvi o'tkazildi. Ushbu bahru-baytga boshlang'ich sinf o'qituvchisi I.Jo'raqulova va musiqa fani o'qituvchisi S.Vafoyevalar hakamlik qilishdi.

Bahru-baytni maktab kutubxonachisi J.Aliboyeva so'zga chiqib, A.Navoiy bobomizning 574 yilligini nishonlayotganligini hamda uning asarlari haqida ma'lumot berib o'tdi.

Bellashuvni birinchi bo'lib 6-"A", so'ng 6-"B" sinflar tark etishdi. So'ngra 5-"A" va 5-"B" sinflar davom ettirishdi. 5-"B" sinf o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Tadbir so'nggida I.Jo'raqulova so'zga chiqib g'olib guruhni e'lon qildi. O'zining fikr mulohazalarini bildirib, xato va kamchiliklar haqida gapirib o'tdi.

**Kutubxonachi:**

**J.Aliboyeva**

“Tasdiqlayman”  
maktab MMIBDO’  
\_\_\_\_\_A.Berdiqulov  
9.02.2015 yil

**Do’stlik tumani xalq ta’limi muassasalari faoliyatini  
metodik ta’minlash va tashkil etish bo’limiga qarashli  
10-umumiy o’rta ta’lim maktabida “Adabiyot kunlari”  
munosabati bilan o’tkazilgan 5-6-sinf o’quvchilari  
o’rtasidagi bahru-bayt**

# *TARTIBOTI*



***G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish  
El anga shafiq ul mehribon bo'lmas emish  
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa  
Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish***

Assalomu alaykum hurmatli, mehribon ustozlar hamda bilimga chanqoq o'quvchilar mana bugun Hazrat mir Alisher Navoiyning 574 yilligi tavalludi munosabati bilan barchamiz jamuljammiz.

Shu munosabat bilan 5-6-sinf o'quvchilari bilan birgalikda bahru-baytga yig'ilib turibmiz.

Shuningdek ushbu bahru-baytga 6 tadan ishtirokchi ishtirok etadi.

Bahru-bayt kechamizga boshlang'ich sinf o'qituvchisi I.Jo'raqulova hamda musiqa fa'ni o'qituvchisi S.Vafoyevalar bilan birgalikda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari hakamlik qilishadi.

Bellashuv sharti quyidagicha: O'zbek mumtoz adabiyoti namayondalarining g'azal, ruboiy, tuyuq, fard va qit'alaridan aytishadi. Agar qaysi jamoa bahru-baytni davom ettira olishmasa bahru-baytni tark etishadi.

Bahru-baytni birinchi bo'lib 5-"A" sinf o'quvchilari boshlab berishadi. Marhamat! Shu tariqa 5-"B", 6-"A" va 6-"B" sinf o'quvchilari davom ettirishadi.

Bahru-bayt ancha vaqtgacha qizg'in davom etdi. Shundan so'ng 6-"A" sinf o'quvchilari bahru-baytni birinchi bo'lib tark etishdi.

So'ngra 6-"B" sinf o'quvchilari ham bahru-baytni tark etishdi.

Shundan so'ng bahru-baytni 5-"A" va 5-"B" sinf davom ettirdi.

Hammani hayratda qoldirib 5-"B" sinf o'quvchilari 5-"A" sinf o'quvchilarini ikkinchi o'rinda qoldirib, g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Bahru-bayt so'nggida I.Jo'raqulova so'zga chiqiqb, o'z so'zida har bir aytilayotgan g'azal va ruboiylarning aytilishiga 'tibor berib, keying bahru-baytlarda takrorlamaslikni tushuntirib o'tdi.

Ushbu bahru-bayt kechasi o'quvchilarda kata taassurotlar qoldirdi.

**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan "Men sevgan asar" mavzusida kitob taqdimoti to'g'risida**

**MA'LUMOT**

10.12.2014 yil

"Navro'z" ShFY

10-dekabr kuni maktab o'quvchilari ishtirokida "Men sevgan asar" mavzusidagi kitob taqdimoti o'tkazildi.

Ushbu kitob taqdimotini maktab MMIBDO' A.Berdiqulov ochib berdi.

Shundan so'ng o'quvchilar tomonidan kitob haqida she'rlar aytili. So'ngra 6-"A" sinf o'quvchilari H.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida sahnali ko'rinish ijro etib berdi. Maktabning musiqa to'garagi o'quvchilari ijrosida "Kitobim qo'limda" qo'shig'i ijro etildi.

Tadbir davomida 5-"A" sinf o'quvchilari o'zbek xalq ertaklaridan "Zumrad va Qimmat" ertagidan sahnali ko'rinish qo'yib berdi.

Tadbir davomida 7-"A" sinf o'quvchilari "Xorazm lazgisi" qo'shig'iga raqs ijro etib berishdi.

Maktabning kitobsevar o'quvchilari tomonidan kitob to'g'risidagi dono bobolarimizning fikrlaridan misollarlar keltirib berishdi.

Tadbir o'quvchilarda kata taassurotlar qoldirishdi.

**Kutubxonachi:**

**J.Aliboyeva**

“Tasdiqlayman”

\_\_\_\_\_ maktab MMIBDO’

A.Berdiqulov

10.12.2014 yil

**Do’stlik tumani xalq ta’limi muassasalari faoliyatini  
metodik ta’minlash va tashkil etish bo’limiga  
qarashli 10-umumiy o’rta ta’lim maktabining  
5-6-sinf o’quvchilari o’rtasida “Men sevgan asar”  
mavzusida kitob taqdimoti o’tkazilganligi  
to’g’risida bayram**

# *TARTIBOTI*



**Boshlovchi:**

*Assalom onajon, assalom ota  
Assalom jonajon jon O'zbekiston  
Assalom yangi kun yangi fotiha  
Assalom mehnatdan yaralgan bo'ston*

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, qadrli o'quvchilar! Bugun  
"Men sevgan asar" mavzusida kitob taqdimoti tadbiriga hush kelibsiz!

Hozirgi tadbirimizni ochib berish uchun maktabimizning MMIBDO'  
A.Berdiqulovga beramiz marhamat! ...

*Yosh o'ynoqi ko'zlarim  
Shuur olar kitobdan  
Tashkil topib so'zlarim  
Baxtim kular kitobdan  
Shuning uchun deymanki  
Kitob mening do'stimsan*

Shundan so'ng o'quvchilar she'r aytadilar.

**1-o'quvchi**

Tanishaylik, men kitob  
Asl bilimlarga kon  
Boylik beray behisob  
Bo'lsang agar qadrdon  
Lekin yirtib burdalab  
Kamaytirma varag'im  
Sendan yana bir talab  
Iflos qilma hech yog'im

**2-o'quvchi**

Tinmay o'qisang agar  
Ko'p narsani o'rgatar  
Bilsang yo'lingda oftob  
Bilim koni bu kitob

### **3-o'quvchi**

Kitob bilimning boshi

Aqli idrok quyoshi

Kitobda nurli iqbol

O'qib topaman kamol

Boshlovchi:

Shundan so'ng 6-"A" sinf o'quvchilari tomonidan X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida sahnali ko'rinish ijro etib berdi.

**Boshlovchi:**

Har sahifang men uchun

Bir hikoyat so'zlaydi

"O'qib olim bo'lg'in" deb

Yaxshi niyat ko'zlaydi

Shuning uchun deymanki

Kitob mening do'stimsan

Hozirgi navbatni maktabimizning musiqa to'garagi o'quvchilari ijrosida "Kitobim qo'limda" qo'shig'li ijro etiladi. Marhamat!

**Boshlovchi:**

Men kitobni ochaman

Kitob aqlimni ochar

Men kitobim ochaman

G'aflat tun kabi qochar

Hozirgi navbatni 6-"B" sinf o'quvchilariga bersakda ular ijrosida "Shum bola" qissasini tomosha qilamiz.

Boshlovchi:

"Kitobim barcha bunyodkorlik yaratuvchanlik va aql idrokning ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir" – degan edi buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur.

Endi navbatni 5-"A" sinf o'quvchilariga beramiz. Ular ijrosida "Zumrad va Qimmat" ertagiga sahnali ko'rinish ijro etishadi. Marhamat!

Hozirgi navbatni 6-"B" sinf o'quvchilariga beramiz. Ular ishtirokida "Ertaklar" nomli qo'shiqqa raqs ijro etishadi. Marhamat!

**Boshlovchi:**

Harbir insonning o'z sevimli kitobi va yozuvchisi bo'ladi. Kitob saodat toppish uchun o'qilmaydi. Uning o'zi bir soadatdir. Endi donolarning kitob haqidagi fikrlarini tinglaymiz.

### **1-o'quvchi:**

Kitob-sehrgar u dunyoni qayta qurdi. Unda odamzodning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni. Kitobsiz olam yavvoyilar olamidir.

### **2-o'quvchi:**

Kitoblar jonsiz ammo sodiq do'stdir.

### **3-o'quvchi:**

Hayotda sening aqli bo'lishingga beminnat hizmat qiladigan ulug' ustoz kitobdir.

### **Boshlovchi:**

Endi navbat qiziqarli ma'lumotlarga asoslangan "Bilasizmi?" sahifasiga.

### **1-o'quvchi:**

Tib ilmning buyuk namayondasi Ibn Sino bobomiz butun umri davomida ijod ilmu tadqiqot bilan shug'ullanib 276 ta kitob yozib qoldirgan. Uning kitoblari ilmiy tahliliy asarlardir. Hajmi ham zamonaviy ilmiy ommabop kitoblardan bir necha barobar kata bo'lgan. Birgina "Ash – shifo" kitobining o'zi 18 jildni tashkil etgan.

### **2-o'quvchi:**

Nyu-Yorkdagi muzeylardan birida bo'yi 3 metr qalinligi 1 metr og'irligi esa 125 kg keladigan dunyodagi eng kata kitob saqlanmoqda.

### **3-o'quvchi:**

Eng ko'p jildli kitob "Fransuz ensiklopediyasi" bo'lib u 1200 jilddan iborat.

### **Boshlovchi:**

Ey O'zg'on naslidan yaralgan o'zbek

Shavkati olamga taralgan o'zbek

Asli nasli toza buyuk millatsan

Uluslar ichida qutbi izzatsan.

Mana aziz ustozlar qadrli bolajonlar "Men sevgan asar" mavzusidagi tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetdi.

Bugun siz bilim manbai bo'lmish kitob haqida juda ko'p ma'lumotlarni bilib oldingiz.

Marhamat barchangizni kitob taqdimotiga taklif etamiz.

Tadbir qatnashchilari tomonidan kutubxonaga badiiy adabiyotlarga 10 dona tushdi.



**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan  
"Eng she'rxon o'quvchi" ko'rik tanlovi  
to'g'risida**

# *MA'LUMOT*



**Do'stlik tumani XTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim  
maktabida o'tkazilgan "Eng she'rxon o'quvchi"  
ko'rik tanlovi to'g'risida**

**MA'LUMOT**

18.03.2015 yil

"Navro'z" ShFY

2015 yil 18-mart kuni 7-8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida "Eng she'rxon o'quvchi" ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlovda har bir sinfdan 1 nafardan o'quvchi ishtirok etishdi.

7-A sinf O'rozova U  
7-B sinf Narzullayeva M  
8-A sinf Arslanova M  
8-B sinf Ne'matova Z  
9-A sinf Ismoilova N  
9-B sinf Xo'jamqulova B

O'quvchilar quyidagi shartlar bo'yicha bellashdi.

|          |                | 7-A | 7-B | 8-A | 8-B | 9-A | 9-B |
|----------|----------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| 1-shart: | Tanishtiruv    | 5   | 5   | 4   | 5   | 4   | 5   |
| 2-shart: | Ifodali o'qish | 5   | 5   | 4   | 5   | 4   | 5   |
| 3-shart: | Bahru-bayt     | 2   | 5   | 2   | 4   | 3   | 5   |
|          | Jami:          | 12  | 15  | 10  | 14  | 11  | 15  |

Tadbirda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari B.Aliboyeva va O.Mustafoyevalar hakamlik qilishdi.

Tadbir qiziqarli bo'lib o'tdi.

**Kutubxonachi:**

**J.Aliboyeva**

*Besh asrkim nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir sher  
Temur tig'l yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher*

Assalomu alaykum , mehri daryo ustozlar hamda kitobxon, kitobsevar o'quvchilar, mana bugun 7-8-9-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilayotgan "Eng she'rxon o'quvchi" ko'rik-tanloviga xush kelibsiz. Marhamat davramizga ko'rik-tanlov ishtirokchilarini taklif qilamiz marhamat!...

|                     |                         |
|---------------------|-------------------------|
| 7-A sinf o'quvchisi | Islomova Muqaddas       |
| 7-B sinf o'quvchisi | Sulxonberdiyeva Dilrabo |
| 8-A sinf o'quvchisi | Ismoilova Nigora        |
| 8-B sinf o'quvchisi | Jo'raqulova Muhayyo     |
| 9-A sinf o'quvchisi | Zulponova Gulnora       |
| 9-B sinf o'quvchisi | Ergashev Sunnat         |

Ushbu ko'rik tanlovni ochib berish uchun so'z navbatini ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi B.Aliboyevaga beramiz marhamat!

Bugungi ko'rik – tanlovga ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari O.Mustafoyeva, B.Aliboyeva hamda M.Usmonovalar hakamlik qilishdi.

Marhamat! 1-shart. Tanishtiruv sharti bo'yicha o'quvchilarga qo'yilgan baholarni eshitamiz.

|                   |        |
|-------------------|--------|
| Islomova M        | 5 ball |
| Sulxonberdiyeva D | 4 ball |
| Ismoilova N       | 5 ball |
| Jo'raqulova M     | 4 ball |
| Zulponova G       | 4 ball |
| Ergashev S        | 5 ball |

*Aziz asrimizning aziz onlari  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin  
Fursat g'animatdur shoh satrlar ila  
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*

Marhamat 2-shart o'zbek adabiyotidan ifodali she'r o'qish sharti bo'yicha o'quvchilarni davramizga taklif etamiz.

Ifodali she'r o'qish sharti bo'yicha baholarni e'lon qilish uchun O.Mustafoyevaga beramiz.

|                   |        |
|-------------------|--------|
| Islomova M        | 5 ball |
| Sulxonberdiyeva D | 4 ball |
| Ismoilova N       | 4 ball |
| Jo'raqulova M     | 4 ball |
| Zulponova G       | 5 ball |
| Ergashev S        | 4 ball |

Endigi shart bahru-bayt sharti bo'yicha baholarni e'lon qilish uchun hakamlar hay'ati a'zosi B.Aliboyevaga beramiz.

|                   |        |
|-------------------|--------|
| Islomova M        | 2 ball |
| Sulxonberdiyeva D | 0 ball |
| Ismoilova N       | 3 ball |
| Jo'raqulova M     | 1 ball |
| Zulponova G       | 5 ball |
| Ergashev S        | 4 ball |

O'quvchilarning umumiy bahosini e'lon qilish uchun O.Mustafoyevaga beramiz.

|                   |         |
|-------------------|---------|
| Islomova M        | 12 ball |
| Sulxonberdiyeva D | 8 ball  |
| Ismoilova N       | 11 ball |
| Jo'raqulova M     | 9 ball  |
| Zulponova G       | 14 ball |
| Ergashev S        | 13 ball |

Yuqoridagi baholarni e'lon qilib bugungi ko'rik tanlov to'g'risida fikr mulohazalarini bildirib g'olib o'quvchilar tag'dirlandilar.

O'quvchilarda katta taassurotlar qoldirdi.